

Amu-Buxoro Mashina Kanalining Qurilishi Tarixi

Eshmirzayev Ziyodulla Olimjon o'g'li

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: ziyodullaeshmirzayev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amu-Buxoro magistral kanali qurilishi, uning o'kla hayotida tutgan o'rni hamda ahamiyati, vohada irrigatsiya inshootlarining rivojlanishi bayon etilgan. Shu bilan birga kanallarning asosiy ko'rsatkichlari, ularning xalq xo'jaligidagi salbiy va ijobiy jihatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Uzgiprovodxoz, irrigatsiya inshootlari, kanal, nasos stansiyasi, Amu-Buxoro magistral kanal, suv ombor, sun'iy sug'orish, irrigatsiyasi tizimi.

Kirish

Amu-Buxoro kanali – O'zbekistonning eng yirik sug'orish va gidrotexnik inshootlaridan biri bo'lib, Amudaryo daryosidan suvni olib, Buxoro viloyatining sug'oriladigan hududlariga etkazish uchun qurilgan. Bu kanalning qurilishi nafaqat O'zbekistonning qishloq xo'jaligida, balki umumiy ravishda mamlakatning iqtisodiy va ekologik rivojlanishida ham katta rol o'ynadi. Bu ilmiy ishda Amu-Buxoro kanalining qurilishi, uning texnik jihatlari, iqtisodiy va ekologik ahamiyati, haqida fikr yuritildi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Amudaryo suvini Buxoroga tashlash g'oyasi o'tgan asrning 70-yillarida, Ahmad Donish tomonidan ilgari surilgan edi. Ming afsuski, uning taklifi va chizgan tarxi Buxoro hukmdorlari tomonidan e'tiborsiz qoldirilgan bo'lsada, Buxoroga suv chiqarish tarixida, xususan Amu Buxoro kanali qurilishida muhim o'rin oldi¹.

O'zbekiston SSR Suv xo'jaligi vazirligining 1962 yil 9 iyuldagi 265-sonli buyrug'iga asosan Amu-Buxoro mashina sug'orish kanali loyihasi tuzildi. 1962 yil 16 noyabriga kelib, O'zbekiston SSR Gosstroy ekspertlari ishtirokida ko'rib chiqildi, hamda O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1962 yil 21 noyabrdagi farmoyishi bilan tasdiqlandi. Loyiha bo'yicha Amu-Buxoro kanali Amudaryodan Buxoro vohasiga sekundiga 100 kubometr suv tashlashi kerak edi. Amu-Buxoro kanali loyihasi ikki variantda tuzildi²: "Uzgiprovodxoz" instituti qurilishga birinchi variantni tavsiya etdi. Birinchi variantga ko'ra Amu-Qorako'l kanalinnig bosh inshootini qayta ta'mirlash yo'li bilan foydalanish, shundan so'ng. kanal Sandikli qumligini, so'ngra Toyqir vodeysini kesib o'tib, Qorako'l platosining g'arbiy qiyaligiga keskin buriladigan joyga yaqinlashadi. Shu yerda Qorako'l platosiga 45 m balandlikda birinchi ko'tarma "Hamza" nasos stansiyasini qurish, so'ngra kanal Quyimozorgacha bo'lgan 140 kilometrlik uncha katta bo'lmagan uyum va chuqurliklar hududidan o'tib, Quyimozor suv omboridan 1,5 km masofada ikkinchi ko'tarma Quyimozor nasos stansiyasi, Bu stansiya yordamida suv 16 m balandlikga ko'tarilgandan so'ng, Toshkent Kogon temir yo'lini kesib o'tib, Xachkob gidrouzelidan 500 m pastda 10 km da Shohrud kanaliga quyiladi. Yerlarning joylashishi quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi: 1) Shohrud kanalini, Amu-Buxoro kanalidan tushadigan nuqtadan Beshariq uzelligacha bo'lgan qismda sekundiga 84 kubometr suv o'tkazadigan qilib kengaytirish va sekundiga 25,8 kubometr suv o'tkazuvchi Jayxun-Hayrabod suv taqsimlag'ich inshootini qurish; 2) Shohrudning o'ng sohilida Amu-Buxoro kanali qo'yiladigan joydan Kamzar bosh o'zanigacha sekundiga 16 kubometr suvni 11 m balandlikka ko'tarib beradigan qo'shimcha nasos stansiyasi bo'lgan suv taqsimlag'ich qurish. Amudaryodan Shohrudga kelib qo'shilgunga qadar butun Amu-Buxoro kanalining uzunligi 194,4 kubometrni tashkil etadi³.

¹ M.Tagiyev Amudaryo suvlari Buxoro dalalarida "O'zbekiston" T.1988

² O'zR MDA, R.2483-jamg'arma, 1-ro'yhat, 6245-yig'ma jild, 21-varaq.

³ М.М. Тагиев Из истории ирригационного строительства низовьев Зарафшанской долины. -С.72.



Ikkinchi variant bo'yicha Amu-Buxoro kanali Amu-Qorako'l kanali Gurdush tarmog'ining oxirigacha bo'lgan o'zanidan foydalanadi. Bu esa kanalni hamda undagi barcha inshootlarni, jumladan ikki nasos stansiyasini ham qayta ta'mirlashni talab etardi. Bu ishlarini kanal ishlab turgan vaqtda amalga oshirilishi kerak bo'lganligi sababli jarayon juda qiyin kechardi. Kanal yo'li Gurdush tarmog'idan Qorako'l daryosining o'ng sohilidan o'tib, Yakkatut temir yo'l stansiyasi yaqinidagi daryoni kesib, Quyimozor suv ombori⁴ning suvini boshqa tomonga buradigan kanalga quyiladi va kanal yo'li bo'ylab oqadi. Ikkinchi variant bo'yicha butun oqim buylab pastlikka qarab ketadi, nasos stansiyalari esa sakkizta. Ikkinchi variant tarkibida Dengizko'l qo'shimcha variant sifatida ishlab chiqilgan Bu yerda Qizilqum bo'ylab Qorako'l vohasini aylanib o'tadi, so'ngra yana Qorako'l platosining shimoli g'arbiy burchagini kesib, Dengizko'l, yakkatut temir yo'l stansiyasiga qadar davom etadi

Ikkala variantning qiymati deyarli bir xil bo'lishiga qaramay, qurilishga tavsiya etilgan birinchi variant quyidagi afzalliklarga ega: birinchi variantda kanaldagi suv gorizonti qariyb butun oqim davomida chuqurlikda bo'lib, ikkinchi variantda goh chuqurlik, goh dambada buladi. Bundan tashqari, kanal yo'lining ancha masofasida sho'rxok yerlardan o'tishi, bunday joylarda dambalar qurish uchun ko'p miqdorda sifatli material talab etishi; birinchi variantdagi doimiy xarajatlar ikkinchi variantdagiga nisbatan kamroq, uning ishlashi ham oddiy. Qabul qilingan variant bo'yicha kanaldan ikki suv tashlagich Hamza nasos stansiyasi oldida Dengizko'l suv tashlagichi; Quyimozor nasos stansiyasi oldida⁵ Tudako'l suv tashlagichi qurish nazarda tutilgan. Kanalni daryo cho'kindilari bosib ketmasligidan himoya qilish uchun bosh inshoot oldida mexanik usul bilan tozalovchi suv tindirgich loyihalashtirilgan. Kanalning har yilgi tozalash ishlari hajmi 2560 ming kubometrni tashkil etadi. Bundan tashqari, daryoning o'zida 200 ming kubometr hajmida tartibga solish ishlari nazarda tutilgan. Kanalda jami 16 ta gidrotexnika inshooti; gaz quvuri orqali 2 ta o'tish joyi va 14 ta ko'pri (shundan 2 tasi temir yo'l) qurish loyihalashtirilgan. Amu-Buxoro kanali gidrotexnika inshootlarining ko'pi sekundiga 60 kubometrdan 124 kubometrgacha suv sarflashga mo'ljallangan bo'lib, barcha gidrotexnika inshootlarini boshqarish va nazorat qilish telemexanika yordamida boshqarilgan bo'lib bular: Olot va Quyimozor nasos stansiyalarida joylashgan dispetcherlik punktlari hisoblanadi. O'zbekiston SSR Suv xo'jaligi vazirligining texnika sovetiga ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan Amu Buxoro kanali yuzasidan qo'yidagicha qaror qabul qildi: Amu-Buxoro sug'orish kanali birinchi variant bo'yicha qo'yidagi tuzatishlar bilan ma'qullansin: kanalning smeta qiymatiga Zarafshon daryosining o'ng sohiliga suv berishni 14,6 ming gektar yerini nasos stansiyasi yordamida sug'orish sharti bilan qo'shish; Navoiy GRESi uchun sekundiga 10 kubometr o'rniga 25 kubometr suv chiqarish zarurligi hisobga olish; loyiha tarkibida bosh regulyatorning suv o'tkazish quvvatiga ega bo'lgan 33 foiz zaxira to'plash nazarda tutish. Buning uchun Shixbittik kanali uchun qurilgan inshoot tuynugini Amu-Buxoro va Amu-Qorako'l kanallari uchun suv oluvchi bazaga aylantirish, Shixbittik kanali uchun yangi regulyator qurilib, bunda mavjud bosh regulyatorni qayta ta'mirlash, Quyimozor suv omboriga cho'kkan shag'al qum aralash loyning tushishi oldini olish uchun filtratsiyaga qarshi zarur tadbirlar o'tkazish, 65 km masofada qo'shimcha poyezd yo'llari qurish, ishchi va xodimlar uchun qo'shimcha ravishda 5 ming kvadrat metr uy joy qurish, qumlardan, shamoldan vayron bo'lishning oldini olish maqsadi-da himoya dambalari qurish kabi ishlarni amalga oshirish belgilandi. Yuqorida keltirilgan o'zgarishlar natijasida qurilishning smeta qiymati 462.9 ming so'mga ko'paydi, yani 6382,32 ming so'm oshdi. O'zbekiston KP Markaziy Komiteti va O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti 1963 yil fevralida Amu-Buxoro mashina sug'orish kanali qurilishi to'g'risida qaror qabul qildi. O'sha yili "Amubuxarakanalstroy" tresti tuzildi. Qurilish ishlari muddati 48 oy etib belgilandi. "Amubuxarakanalvodstroy" quruvchilari kanal qurilishi boshlanishiga bag'ishlangan yig'ilishda qurilish muddatini qisqartirish, uni 1965-yilga qadar foydalanishga topshirish majburiyatini oldilar. 1963-yilda gidroquruvchilar Amudaryoning suvini Buxoro vodiysiga keltirish uchun amaliy ishga o'tdilar. Respublika LKSM Markaziy Komiteti Amu-Buxoro kanali juda katta ahamiyatiga ega

⁴ O'zR MDA, R.2483-jamg'arma, 1-ro'yxat, 705-yig'ma jild, 209-varaq orqasi.

⁵ O'zR MDA, R.2483-jamg'arma, 1-ro'yxat, 789-yig'ma jild, 162-varaq.



ekanligini hisobga olib, uni umumxalq qurilishi deb e'lon qilindi. Shu bilan birga yuzlab yigit va qizlar o'z hohishi bilan kelishdi. Qurilishda, gidrotexnika inshootlarini bunyod etishda 3,5 mingdan ziyod kishi xizmat qildi. "Amubuxarakanalstroy" trestining uchta qurilish montaj boshqarmasidan tashqari 20 dan ortiq subpudrat tashkilot ishladi. Mamlakatning 60dan ortiq sanoat markazlari Moskva, Leningrad, Kiyev, Magnitogorsk, Zaporozhye, Ashxobod, Toshkent asbob uskuna va qurilish materiallari yetkazib berdilar. Kanal qurilishida Moskva, Yaroslavl, Minsk, Gorkiy zavodlarining avtomashinalari ishladi. Nasoslarni "Uralgidromash", elektr dvigatellarini Sverdlovskdagi Lenin nomli "Uralelektrotyajapparat" zavodi yetkazib berdi. Xarkov turbina zavodi zatvorlar, Taganrog turbina zavodi "Krasniy kotelshchik" qozonlar yetkazib berishdi. Kanalni Novo-Kramatorsk o'ziyurar ekskavatorlari, Chelyabinsk zavodining dizel elektr buldozerlari, Bryansk, Kovrovek va Toshkentining ekskavatorlari va buldozerlari qazidilar. Bir qancha zavodlar nasos stansiyalari uchun qurilish mashinalari va asbob-uskunalar tayyorladi. Kanal qurilishida 39 millat vakillari qatnashdi. Mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra Amudaryo loyqalanishi jihatidan Amazonkadan keyin Nil daryosiga yaqindir. Shuning uchun suv olinadigan inshootdan bosh inshootgacha kecha kunduz 16 ta nasos stansiyasi ishladi va har biri soatiga loyqa aralash 100 kubometr dan ko'p suvni haydab berdi⁶. Ulkan zemlesos snaryadlarini chexoslovakiyalik mashinasozlar tayyorlab berishdi. Uning unumdorligi soatiga 250 kubometr kubni tashkil etadi. Bu kanalni loyqadan tozalovchi juda katta zavod desa bo'ladi. Bosh inshoot yonida shlyuz qurilib, uning yordamida kanalga zemlesos snaryadlari qo'yildi. Bu hol undan yaxshiroq foydalanish imkonini berdi, chunki bosh inshootdan dvoynikka qadar loyqa ko'p cho'kadi, shuning uchun kanal o'zanini tozalab turish lozim buladi. Amu Buxoro kanali sifat jihatidan tamomila yangi asosda gidrotexnika inshootini amalga oshirishning birinchi tajribasi bo'ldi. Suv birinchi marta mashinalar yordamida uzatiladigan bo'ldi. Kuchli elektr nasoslari sekundiga 106 kubometr suvni 60 m balandlikka ko'tardi. Kanal qisqa muddatlarda bunyod etilganligi, ishonchiligi, o'z xarajatlarini tezda qoplay olishi mumkinligi mashina yordamida suv chiqarishni yanada rivojlantirish imkonini berdi. Kanaldan keyin sizot suvlarni tashqariga tashlaydigan Yemonjar drenaj (zovur) nasos stansiyasi, mashina yordamida sug'oradigan Svet nasos stansiyasi, drenaj uchun sizot suvlarini chiqarib tashlash uchun o'nlab vertikal skvajinalar qurildi.

Amu Buxoro kanali birinchi navbatini ishga tushirish hisobiga suv ta'minotini yaxshilashandi⁷. Biroq, Buxoro va Samarqand viloyatlarining ba'zi hududlari suv bilan to'la taminlanmagan bo'lib, bu hol ayniqsa suv taqchil bo'lgan yillarda o'z ta'sirini ko'rsatardi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va respublika Ministrlar Soveti Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligi hamda Buxoro va Samarqand viloyat tashkilotlarining Amu-Buxoro mashina sug'orish kanalining ikkinchi navbatini qurish haqidagi takliflarini ma'qulladilar. Amu-Buxoro mashina sug'orish kanalining ikkinchi navbatini qurishdan maqsad 72.7 ming gektar sugoriladigan yeri bo'lgan Buxoro voxasining shimoli sharqiy qismini Amudaryo orqali sug'orish edi. Shundan keyin kanal yo'li uch variantda loyihalashtirildi.

Birinchi variantga ko'ra Amu Buxoro kanali birinchi navbatini qayta ta'mirlash, bosh inshootning o'zini 138 km masofaga kengaytirish nazarda tutildi. Shofirken gidrouzeligacha esa 67 km masofada kanal qo'riq yerlardan o'tishi loyihalashtirildi, 40 km da "Yubileynaya" nasos stansiyasi qurilishi belgilandi. "Yubileynaya" nasos stansiyasidan Shofirkon gidrouzeliga qadar kanal birinchi variant yo'li bo'ylab ketadi. Uchinchi (aralash) variant bo'yicha Korako'l suv taksimlagichida 10 km davomida ikkinchi variant yo'liga to'g'ri keladi. So'ngra Amu-Buxoro kanalining birinchi nabbatiga taqaladi va Hamza 11 nasos stansiyasi oldida unga yaqinlashib, yana ikki tarmoqqa bo'linadi. Sekundiga 54 kubometr suv utkazadigan bir tarmoq Amu-Buxoro kanalining mavjud birinchi navbatiga qo'shiladi, 54 kubometr suv sarflaydigan boshqa tarmoq esa 38 km masofada ung tomondagi qoyali joylarda va Amu-Buxoro kanali birinchi navbati yo'liga parallel bo'lib o'tadi.

⁶ Бекимбетов Н., Джаманкараев С. Оросительные каналы в низовьях Амударьи и улучшение их режима работы. - Нукус: Каракалпакстан, 1986. - С. 52.


⁷ O'zbekiston kolhoz va sovxozlari tarixi. (Ocherklar). Birinchi kitob... - B.77.

*Dyuker nemischa so'zdan olingan bo'lib bosimli suv o'tkazgich degan manoni anglatadi. O'ZME birinchi jild T.2000



Qoyali uchastka oxirida tarmoqlar yana birlashib Amu-Buxoro kanalining mavjud birinchi navbati bo'ylab o'tadi. Shu yerda Amu-Buxoro kanali Tudako'l quyilmasigacha sekundiga qo'shimcha ravishda 108 kubometr suv o'tkaza digan qilib kengaytirildi. So'ngra Amu-Buxoro kanalining ikkinchi navbati Tudako'l ko'yilmasining sharqiy tomonidagi qo'riq yerlaridan o'tib qirqinchi kilometrda ikki bosqichda suv ko'tarib beradigan "Yubileynaya" nasos stansiyasi qurildi. Uning biri Xarxur tarmog'iga suv ko'tarish, ikkinchisi esa Shofirkon tarmog'i bo'ylab suvni ko'tarib berishga mo'ljallangan edi. Xarxur tarmog'ining uzunligi 13 km, Shofirkon tarmog'iniki 27 km. Kanal yo'lida sekundiga 75 kubometr suv tashlagich hamda "Hamza P" nasos stansiyasi oldida suv tindirgich, Shofirkon va Xarxur dyuker*ining so'nggi suv tashlagichi, avtomatlashtirish vositalari va boshqalar loyihalashtirilgan. Bu variantning dastlabki ikki variantdan asosiy farqi shundaki, unda kanalning bosh o'zanidan 155 km da joylashgan va 3mlrd kubometr suv to'plash imkonini beradigan Tudako'l quyilmasidan foydalanish masalasi ko'rib chiqilgan edi. Bundan tashqari, bu quyilmadan Zarafshon daryosi toshib ketgan hollarda ham foydalansa bo'lardi. Shu bilan birga, bu variantga ko'ra bo'lajak Tudako'l suv omborini to'ldirish uchun kanaldan suvni chiqarish inshooti kurilishi nazarda tutildi. O'zbekiston SSR Suv xo'jaligi vazirligi va O'zbekiston SSR Qishloq xo'jaligi vazirligi loyiha uchun uchun variant bo'yicha qurishni tavsiya etdilar. Chunki bu variant ancha tejamli bo'lib, kelajakda To'dako'l qo'yilmasidan suv ombori sifatida foydalanish va shuning hisobiga qo'shimcha ravishda 100 ming gektar sug'oriladigan yerni o'zlashtirish imkonini berardi⁸. Nasos stansiyalari uchastkalari va inshootlarining injener geologik sharoitlarini "Uzgirovodxoz" instituti 1967-yil dekabrda 1968-yil iyuliga qadar o'rganib chiqdi. Ekspeditsiya qidiruvchilari va geologlari Amu-Buxoro kanali ikkinchi navbatining hamma variantlari uchun tuproqning menzul suratini oldilar va geologik tadqiq etdilar. Amu-Buxoro kanalining ikkinchi navbati uchun suvni "Xamza 11" va "Yubileynaya" nasos stansiyalari yordamida ko'tarib beriladi. Birinchi ko'tarma "Hamza 11" ning nasos stansiyasi mavjud "Hamza 1" nasos stansiyasidan 2,5 km masofada joylashgan bo'lib, "Hamza P" nasos stansiyasining unumdorligi 54 metrdan boshlab manometrik balandlik bilan birga sekundiga 108 kubometrni tashkil etadi. ikkinchi kutarmasi "Yubileynaya" nasos stansiyasining "Hamza P" nasos stansiyasidan 160 km masofada joylashgan. Bu stansiya Xarxur tarmog'iga 46 m balandlikka sekundiga 40 kubometr, Shofirkon tarmog'iga 68,5 m balandlikka 52 kubometr suvni ko'tarib beradi. Ular sekundiga 1315 kubometr suvni 68,5 54 m ga kutarib beradi. Amu-Buxoro kanalining ikkinchi navbati 1975-yilda ishga tushiriladigan bo'ldi. Kanalni bunyod etish "Amubuxara-kanalstroy" kurilish boshqarmasiga topshirildi. Maxsus ishlarni bajarishga parmalash portlatish ishlarini bajarish uchun "Soyuzvarivprom" trestining Toshkent maxsus boshqarmasi; qo'shimcha stansiyalar va elektr asboblarini montaj qilish uchun "Sibelektromontaj" trestining 2 montaj uchastkasi; temir yo'l podyezdleri qurish uchun "Sredaztransstroy" trest; gidromexanika asbob-uskunalarini naporli truboprovodlar va metall konstruk siyalarni montaj qilish uchun SSSR Energetika va elektrlashtirish vazirligi "Gidromontaj" trestining O'zbekiston uchastkasi; magistral kanal qurilishi uchun "Soyuzprovod-mexanizatsiya" trest; yer ishlarini bajarish uchun Transport qurilishi vazirligining "Transgidromexanizatsiya" trestining maxsus boshqarmasi; Amu-Buxoro kanalida qumni shibbalab mustaxkamlash ishlarini bajarish uchun O'rmon xo'jaligi davlat komiteti jalb etildi. O'zbekiston SSR Qishloq qurilishi vazirligiga 1970-yilda Quyimozor temir beton buyumlari zavodini qayta ta'mirlashni tugatish vazifasi topshirildi. Gosplanga 1971-yildan boshlab "Uzglavvodstroy" ga Quyimozor shag'al saralash zavodidan har yili 70 ming kubometrdan saralangan shag'al ajratish, O'rta Osiyo temir yo'liga esa shag'alni qurilish obyektlariga tashib borish uchun vagonlar ajratish tavsiya etildi. "Sovetskaya Buxara" gazetasida 1970-yil 17-fevralda yozilganidek, qurilish sur'atini oshirish uchun 1970-yildan boshlab Buxoro va Samarqand viloyatlari kolxoz va sovxozlaridan 500 nafardan, Qashqa daryo viloyatidan 100 nafardan ishchi ajratildi hamda kanal qurilishiga malakali mutaxassislar jalb etildi

⁸ Ирригация Узбекистана. В 4-х томах. Технический прогресс в ирригации.- Ташкент: Фан, 1981. Т.4. -С.252.



1970 yil 15 fevralida Amu-Buxoro kanali ikkinchi navbatining qurilish ishlari boshlandi⁹. Ishni birinchi bo'lib Olot massivida 25 buldozerchi "Amubuxorakanalstroy" boshqarmasi boshlab berdi. O'zbekiston KP Markaziy Komiteti va O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining qarori va Gosplan rejalariga ko'ra, kanal qurilishi 1975 yil dekabrda tugallanishi rejalashtirildi. Vatanimiz tarixida gidroqurilish sohasida quvvatlar va obyektlarni bosqichma bosqich ishga tushirish amaliyoti quruvchilar oldida bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. O'zbekiston KP Markaziy Komiteti va O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti Amu-Buxoro kanali ikkinchi navbati qurilishiga alohida e'tibor berib, 3 qurilish montaj boshqarmasining irrigatorlari Qiziltepadagi "Yubileynaya" nasos stansiyasi fundament betonini quyib, suv taqsimlagich qurilishida katta ishlarni bajardilar. 7 PMK kollektivi "Hamza 11" nasos stansiyasini qurish bilan shug'ullandi, Betonchilar suvni umumiy oqimini uch qismga Amu-Qorako'l kanaliga, Amu-Buxoro kanalining birinchi va ikkinchi oqimiga taqsimlanadigan joyda g'ayrat qildilar. 4 PMK kollektivi Buxoro sovxozida sug'orish inshootlariga beton yotkizish, 2 PMK kollektivi kanal ikkinchi navbati ning Xarxur va Shofirkon tarmoqlarini qazish bilan shug'ullandi. Shunday qilib, suv masalasi respublikada irrigatsiya ishlarining hamma bosqichlarida suv xo'jaligi kompleksining o'zagi bo'ldi.


XULOSA

Ekin maydonining kengayib, sug'orma dehqonchilikni rivojlanib borishi, eski sug'orish tizimlarini takomillashtirishni, mavjud sug'oriladigan yangi yerlarga suv chiqarishini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Buxoro viloyatida o'zlashtirish mumkin bo'lgan yerlarning mavjudligi gidrotexnikalarni Amudaryodan vodiya qo'shimcha suv berishning mumkin bo'lgan yechimlarini topishga da'vat etdi. Amudaryodan suv tashlash masalasida ko'pgina har xil takliflar bo'ldi. Buxoro voxasi iqtisodini rivojlantirishda 1966-yil 13-martda Amu-Buxoro kanalining ishga tushirilishi muhim bosqich bo'ldi. Uch yil ichida bunyod etilgan 185 km li kanal Qizilqum, Urtacho'l platosi va Qarshi cho'li etaklarini kesib o'tdi. Hamza va Quyimozor ikki kuchli nasos stansiyalari Amudaryo suvini 60 m va undan ham balandlikka ko'tarib, Shohrud Hayrabod sug'orish tizimiga yetkazib berdi. Bu hol 100 ming gektar yerga suv chiqarish imkonini berdi. Amu-Buxoro kanali qurilishi yangi sifat asosida gidrotexnika qurilishida birinchi tajriba bo'ldi. Tarixda birinchi bor mashina yordamida suv uzatiladigan bo'ldi. Kanal qisqa muddatlarda bunyod etilganligi, ulardan foydalanish qulayligi, o'z xarajatlarini tezda va foydasi bilan qoplashi mashina yordamida sug'orishni yanada rivojlantirishga yordam berdi. 1970-yilda Amu-Buxoro mashina sug'orish kanalining ikkinchi navbatining qurilishi boshlandi. Buning natijasida Buxoro viloyatida qo'shimcha ravishda 73 ming gektar yerga suv chiqarildi va yana 15,5 ming gektar yerni o'zlashtirish uchun zaxira yaratildi. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining qurilishi Amu-Buxoro mashina kanalida gidrotexnika boshqarish uchun elektron-xisoblash mashinalaridan keng foydalanish imkonini berdi. Shunday qilib, qariyb Buxoro viloyati tamomila Zarafshon vodiysidan suv olmaydigan bo'ldi. Bu esa Zarafshon daryosining 1 km kubdan ortiq suvini bo'shatib, undan Samarqand viloyatining suv ta'minotini oshirish hamda Qashqadaryoga beriladigan suv miqdorini birmuncha oshirishga imkon berdi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. M.Tagiyev Amudaryo suvlari Buxoro dalalarida "O'zbekiston" T.1988. B.60
2. O'zR MDA, R.2483-jamg'arma, 1-ro'yxat, 6245-yig'ma jild, 21-varaq.
3. М.М. Тагиев Из истории ирригационного строительства низовьев Зарафшанской долины. -С.72.
4. O'zR MDA, R.2483-jamg'arma, 1-ro'yxat, 705-yig'ma jild, 209-varaq orqasi.

⁹ O'zR MDA, R.2700-jamg'arma, 1-ro'yxat, 742-yig'ma jild, 167-varaq



-
5. O‘zR MDA, R.2483-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 789-yig‘ma jild, 162-varaq.
 6. Н.Бекимбетов, С.Джаманкараев Оросительные каналы в низовьях Амударьи и улучшение их режима работы.-Нукус: Каракалпакстан, 1986. -С. 52.
 7. O‘zbekiston kolhoz va sovxozlari tarixi. (Ocherklar). Birinchi kitob... -B.77.
 8. Ирригация Узбекистана. В 4-х томах. Технический прогресс в ирригации.- Ташкент: Фан, 1981. Т.4. -С.252.
 9. O‘zR MDA, R.2700-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 742-yig‘ma jild, 167-varaq
 10. Xoliqov, G. O. (2024). Uzbek O‘ZBEKISTON VA AQSHNING SOG ‘LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI ALOQALARI. *Journal of Social Sciences*, 1(02).
 11. Golib, K. (2022). UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH FOREIGN COUNTRIES IN PROTECTING A HEALTHY FAMILY AND ITS RESULTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 554-557.
 12. Murodullaevich, B. O. (2024). THE FIGHT AGAINST INFECTIOUS DISEASES OF UZBEKISTAN ON EXPERIENCE. *Western European Journal of Historical Events and Social Science*, 2(4), 93-97.
 13. Bo‘ronov, O. (2024). Uzbek QISHLOQ JOYLARDA TIBBIY PROFILAKTIKA VA SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK BARQARORLIKNI TA‘MINLASH ISHI TARIXI. *Journal of Social Sciences*, 1(02).
 14. Shuxratovich, T. B. (2024). History of Educational and Scientific Works in Andijan State Medical Institute. *Jurnal ISO: Jurnal Ilmu Sosial, Politik dan Humaniora*, 4(2), 5-5.